



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi	373

4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, “Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO‘XTAQULOVA, Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

**AZIM SHOIR IJODIDA AN'ANA
(Chiroqchi dostonchilik maktabi)**

**TRADITION IN THE WORK OF A GREAT POET
(Chirakchi School of Epic Poetry)**

Kamoliddin EGAMQULOV,
TAFU katta o'qituvchisi, fil.f.f.d (PhD)
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964

Annotation. *This article discusses the work of the poet Azim, a prominent representative of the Chirakchi school of poetry. It discusses traditionalism, school-specific features, mentor-discipleship, and performance tradition in the poet's work.*

Key words: *epic, tradition, bakhshi, repertoire, intrigue, drum tune, terma.*

Chiroqchi dostonchilik an'anasini bugungi kunda davom etishda zanjir vazifasini bajargan ikki baxshining o'zni beqiyos. Bular Azim shoir (1929-1993) va Shomurod shoirlardir. Azim shoir Chiroqchi dostonchiligiga ulkan hissa qo'shgan vakillaridan biri hisoblanadi. U kuylagan bir qancha doston va termalari bugungi kunda ham shogirdlari tomonidan og'izdan-og'izga ko'chib kelmoqda. Azim shoir Xo'jayev 1929-yilda Chiroqchi tumanining To'qmor qishlog'ida hunarmand baxshi oilasida tug'iladi. Uning otasi dostonlar kuylash bilan bir qatorda maxsi-kovush, qovg'a, to'qim tikish bilan ham shug'illangan. Azim shoir Norqizil domla bilan suhbatida yoshlik chog'ida Abdulla shoir uyiga ko'p kelganligini, keyinchalik o'zi ham Abdulla shoirning uyiga borib doston va termalar o'rganganligini, shogird tushganligini aytadi¹⁷. Azim shoirning repertuarida "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Kuntug'mish", "Yusuf va Ahmad", "Qunduz bilan Yulduz", "Rustamxon", "Avazxon", "Ravshanxon" kabi dostonlar bo'lgan. O'zi yaratgan "Qashqadaryom", "Shafyor", "Govmishman", "Do'mbiram" va ustozlaridan o'rgangan termalarida rang-barang mavzularga yuzlanadi. Uning termalarida eng avvalo, Chiroqchi poetik maktabiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri – sho'x kuylash yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bir safar bir to'ydan qaytayotganida to'y egasi haydovchisiga shoirni mashinada uyiga tashlab kelishini aytadi. Yo'l-yo'lakay haydovchi shoirdan bizga ham bir terma aytib bering deydi. Shunda shoir do'mbirasini chertib:

Minganginang Nevadir,

Ichganginang pevadir,

Enaginang bevadir,

Shu enangni shafyorjon,

Azim shoir sevadir... [Кенгбоев 2019:112]

deb terma kuylay boshlaydi. Haydovchi jahli chiqib shu joyning o'zida kechasi yarim yo'lida shoirni tushirib ketgan ekan [Кенгбоев 2019:112].

Azim shoir termalarining o'ziga xosligi shundaki, u termalarida ko'proq obraz tilidan so'zlaydi. Misol uchun "Shafyor" termasida:

¹⁷ Dala ma'lumoti: Norqizil Kengboyev bilan suhbatdan. – Chiroqchi tumani Chiyal MFY Nonxo'r qishlog'i. 03.01.2023.

*Shafyor egam qarashmading,
Ichding, rulga yarashmading.
O'z obro'yingga talashmading,
Kuydim senday shafyorimdan... [Кенгбоев 2019:109]
Yoki "Govmishman" termasida:
Qoq qoziqqa tortib meni boyladi,
Qolgan nushg'urdini menga tayladi.
Yemab edim meni urib haydadi,
Bu azobdan ado bo'lgan govmishman... [Кенгбоев 2019:113]
kabi keladi.*

Azim shoirning termalarida Vatan, insoniylik, adolat, mehr-muhabbat, sofdillik kabi tuyg'ular yetakchilik qiladi:

*Har ne dedim el-u yurti kuyladim,
Bedov minib, uloq chovib to'yladim.
Yoronlar-ov yaxshilikni o'yladim,
Haqiqatni so'ylab kelgan baxshiman. [Кенгбоев 2019:106]*

Azim shoir ko'plab shogirdlar yetishtirdi. Shulardan o'g'li Yodgor baxshi va Shodiyor baxshilar ustozidan o'rgangan baxshichilik an'alarini davom ettirib kelmoqda. Yodgor baxshi bugungu kunda otasidan o'rgangan doston va termalarni kuylab kelmoqda. Ustoz-shogird an'anasini davom etgan holda ko'plab shogirdlar tarbiyalamoqda. U otasidan o'rgangan va barcha baxshilarning repertuaridan asosiy o'rinni egallagan "Kelinoy" [Кенгбоев 2019:118] termasini mahorat bilan kuylaydi:

*Kelinoydan aytayo,
So'zim so'zga matayo (ulamoq).
Yurakkinam chirsillab,
Uchqunlasa qaytayo.
Kelinoy kimning kelini,
Avaylaydi belini.
So'rab bilay elini,
Shom qilmasin qaynona,
Oy kelinni dilini... [Кенгбоев 2019:118]*

Yodgor shoir ijrosidagi "Kelinoy" varianti boshqa baxshi-shoirilar kuylagan variantlardan tamomila farq qiladi. Ko'plab "Kelinoy" turkum doston va termalaridan baxshilar, asosan, tinglovchilarni e'tiborini jalb qilishdan foydalangan, satirik ruhda kuylab, ularda ko'plab yumor va qochirimlardan foydalanishgan. Misol uchun Sherobod dostonchilik maktabining yetuk vakili Qodir baxshi variantiga diqqat qarataylik [Муродов, Эргашев 1999:176]:

*Kelinoy kelar imillab,
Belidan pasi qimillab.
Uni ko'rgan chollar ham,
Oltoy yotar inqillab.*

Muhit va tinglovchilarning holatiga, yosh jihati va ta'siriga qarab baxshining munosabati ham jadallashib borgan:

*Oltin sirg'angda qo'ng'iroq,
Oltmish nor tuya o'tganday.*

*Bir ko'rib qolsam bo'yningni,
Qirq yillik dardim ketganday...*
Hamma olqishlaydi, kulgi-mutoyiba kuchayadi. Jamoaviylik munosabatiga ko'ra kirishimlilik ta'siri yana ham oshib boraveradi:

*Qiliqsiganing hutcha bor,
Oq badanlaring sutchi bor.
Ko'kragingning tugmasi,
Javzada pishgan tutcha bor.*

*Eshik oldida bulog'ing,
Hakkalab o'ynar ulog'ing.
Ming yigitlarni nuratar,*

Tiralib turgan bilaging... [Муродов, Эргашев 1999:176]

Yodgor shoir variantida esa, asosan, ayollar, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, ahamiyati borasidagi g'oya ilgari suriladi. Qizlar turmushga chiqib kelin bo'lib birovning xonadoniga borganda u quldek emas, shu xonadonga a'zo bo'lishini uqtiradi. Unga yaxshi munosabatda bo'lish, uning haq-huquqlarini inobatga olish kerakligi kabi tushunchalarni ilgari suradi:

*Kelinoy kimning kelini?
Qo'zg'amasin qaynona,
Yuragining hilini.*

*Kelinoy kimning kelini?
Ayt mang gapning zilini.
Qayinsinglisi bezillab,
Qichitmasin tilini* [Кенгбоев 2019:118].

Ma'lum bo'lmoqdaki, baxshi xalq ichidagi muammolarni eslatish barobarida, ularning yechimi haqida aniq, asosli takliflarini termaga singdirmoqda.

Azim shoirning bir shogirdi Shodiyor baxshi bo'lib, u 1972-yilning 8-martida Chiroqchi tumani Chiyali To'qmor qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligidan chavandozlikka, terma va dostonlar aytishga qiziqqan. Azim baxshi vafoti oldidan do'mbirasini shogirdi Shodiyor baxshiga qoldirib, unga oq fotiha bergan. Shodiyor shoir repertuaridan "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Oltin qoboq", "Ollanazar Olchinbek", "Rustamxon", "Ravshanxon", "Oysuluv" kabi dostonlar, "Ko'pkari", "Do'mbiram", "Kelinoy" kabi bir qancha termalar o'rin olgan¹⁸.

Janubiy O'zbekiston dostonchiligida Chiroqchi baxshichiligining yana bir ahamiyatli o'rnini o'zaro adabiy aloqalarda ham ko'rishimiz mumkin. Chiroqchi dostonchiligida ustoz baxshilarining boshqa hududlarda (Samarqand viloyati, Janubiy Tojikiston, Surxondaryo va Qashqadaryoning boshqa hududlarida ko'plab shogirdlari aniqlangan. Bundan tashqari vohadagi barcha poetik maktablar bilan adabiy aloqalari, ijodiy hamkorligi bo'lgan. Baxshi-shoirilar o'zaro dostonchilik kechalari o'tkazishgan. Bir-birlari bilan bordi-keldi qilishgan, aytishuvlar qilgan, mahorat almashishgan.

Chiroqchi baxshichiligining vakili Azim baxshi bilan Sherobod dostonchilik maktabining yetuk vakili Qodir baxshi o'rtasidagi aloqa ibratlidir. Hatto ular to'ylarga

¹⁸ Dala ma'lumoti: Shodiyor baxshi bilan suhbatdan. // 3-Xalqaro baxshichilik festivali. – Guliston. 07.05.2023.

birga borib, doston kuylashda bir-birini to'ldirgan. Ta'bir joiz bo'lsa bu ijodiy hamkorlik "Hasad qilma, havas qil" hikmatining xalq baxshilari hayotidagi go'zal va namunali tadbiquidir. Aytishuvlar qilib davrani qizdirgan. Quyidagi misol fikrlarimizni isbotlaydi:

Qodir baxshi:

Nima kerak do'stim birovga kulmoq?

Bittasi daryodir, bittasi ko'lmak.

Biz ham odamzotmiz, odam zotidan,

Nasib etarmikan daryodek bo'lmoq.

Azim shoir:

Qashqani Amudan sira kam dema,

Sozni ushlab alvon-alvon kuyladik.

Unutmaydi el-yurt bizni, g'am yema,

Olislarni qo'shiq aytib kuyladik [Кенгбоев 2019:107].

Ko'rishimiz mumkinki, Azim shoir ijodida doston va terma kuylash an'anasi tizimli shakllangan. Bu ijro an'anasida hamda obrazlar tizimida ko'zga tashlanadi. Ayniqsa ustoz-shogirdlik an'anasi, Chiroqchi dostonchilik maktabiga xos bo'lgan xususiyatlar va obrazlilik Azim shoir ijodini, baxshichilikdagi mahoratini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamqulov K. Chiroqchi dostonchilik maktabining Janubiy O'zbekiston baxshichiligidagi o'rni va Shomurod baxshi ijodi. f.f.f.dok. (PhD), 2025.
2. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – T.: Fan, 2008.
3. Юлдошев Б. Қашқақдарё бадиияти. Шарқ. – Т., 1998.
4. Кенгбоев Н. Қашқақдарё воҳасининг бахши оқинлари. – Т., 2019.
5. Hakimov O'. Soz va suhbat. "Alpomish media". 2018.
6. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12686_1_D90E2C12C5862A5C65C3EF78D84CF8FFFA3144A4.pdf

